



# IBRATLI HIKMATLAR



TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2006

94

~~84(SU)~~

I 14

Tuzuvchi: **Anvar Sobirjon**  
Muharrir: **Karim Bo'ronov**

**Ibratli hikmatlar** /Tuzuvchi A.Sobirjon. -T.:  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. —  
64 b.

Kitobda ibratli rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatlar va latifalar jamlangan. Ulardagi purma'no fikrlar bugungi kunimiz uchun ham o'z qadrini yo'qotmagan. Ushbu ibratli hikmatlar har birimizni doimo mehr-oqibatli, odob-axloqli bo'lishga undaydi.

Ushbu majmua keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**BBK 84(SU)I**


C 0301050900 - 130  
M351 (04) - 2006

2006

2006  
10812  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

ISBN 5-640-02180-2

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2006-y.



**YUSUF XOS HOJIB  
HIKMATLARIDAN  
(Nasriy bayoni)**

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi,  
u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo'ldi.

Unga tabiat aql va ong ato qildi, so'zlash  
qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go'zal  
fe'l bilan ta'minladi.

Unga bilim hadya qildi, shu tufayli inson  
ulug'likka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli  
inson chigal jumboqlarni hal qildi.

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa,  
u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulug'li-  
gini anglagin, bu ikkalasiga ega bo'lgan sara kishilar  
ulug'likka erishadilar.

\* \* \*

Sen o'zingning eson-omonligingni istasang,  
tilingdan zinhor yaramas so'zlarni chiqarmagin.

---

*Yusuf Xos Hojib* — XI asrda yashab ijod etgan buyuk adib va  
shoir, mashhur «Qutadg'u bilig» asarining muallifi.

Bilib-tushunib soʻzlangan soʻz donolikdan dalolatdir, nodon-johilning soʻzi oʻz boshini yeydi.

Koʻp soʻzlashdan ortiqcha naf koʻrmaganman, soʻzning koʻpidan foyda ham topmaganman.

Soʻzni koʻp soʻzlamasdan biroz oz soʻzlagin, ming soʻzli chigalni bir soʻz bilan yechgin.

Haddidan ortiq soʻzlaganlarni ezma deyiladi, shuningdek hech soʻzlamaganlarni gung deb ataladi.

Modomiki shunday ekan, oʻrtacha yoʻriqqa amal qil, oʻrtacha yoʻriqqa amal qilgan odam yuksaklikka erishadi.

\* \* \*

Odam muloyim, xushfeʼl, ochiq chehrali, zakovatli, bilimli boʻlishi kerak. Bilimni saralab, saylab olish uchun zakovatli boʻlish kerak, ishlarni koʻngildagidek bitirish uchun esa bilimli boʻlish kerak.

Odam yaroqli va yaroqsiz narsalarning farqini koʻra bilsa, kerakli va keraksiz narsalarni oʻrin va joyiga qoʻya bilsa,

Yaxshi va yomonni farqlay bilsa va ajrata olsa, qanday ishda boʻlmasin oʻzini tuta olsa,

Shundagina barcha ishlari tugal va pishiq-puxta boʻladi...

\* \* \*

Bilimsizning tili doim berk boʻlishi kerak, bilimlining tili soʻzga erkli boʻlishi kerak.

Bilimlining so'zi yerga suv kabi zarurdir, suv oqib tursa, yerda turli ne'matlar unadi.

Bilimli kishining ovozi kamaymaydi, oqar va qaynar buloqning zilol suvi kamaymaydi.

Donolar suvga serob yerga o'xshaydilar, qayeriga oyoq bosilsa, suv chiqadi.

Nodonlarning ko'ngillari qum cho'li kabi bo'ladi. Yemish, giyoh o'sishi u yoqda tursin, unga daryo oqib kirsam ham to'lmaydi.

\* \* \*

Andishasiz odamdan zinhor yiroq tur va qoch, uyat-andishaliklarga mendan ming-ming olqishlar bo'lsin.

Jamiki ishda shoshilma, sabrli bo'l, o'zingni bosib ol, sabrli odamlar orzu-istaklariga yetadilar.

O'zgalarga ziyon sog'inma, o'zing ham ziyon ko'rma, faqat yaxshilik qil, orzu-havasni bosgin.

\* \* \*

Tilingdan yolg'on so'z chiqarma, bu yolg'on qadringni tushiradi.

Qarindoshlarga, yaqinlarga yaqinlik bog'la, katta va kichikka ochiq chehra bilan kulib boq.

Non-tuzingni keng tut, odamlarga yedir.

Davlatning ziyoda bo'lsa, unga mag'rurlanmagan, qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil, yomonlik qilmagin.

Ichimlik ichma, janjalga aralashma, undan uzoq yur, zino qilma va fosiq, tuban degan nom olma.

\* \* \*

Odamlarga achchiq va dag'al so'zlamagin, dag'allik misli olov, kuydiruvchi yolindir.

Sokin, og'ir, vazmin va muloyim bo'l, faqat yaxshilik qilgin.

G'ofil odam farzandi behisob mol-dunyo yig'adi, lekin nima uchun terayotir, bu unga nasib etadimi, bu haqda sira o'ylamaydi.

\* \* \*

Tabiatan aql-hushdan mahrum bo'lmay bunyodga kelgan bolada bilish qobiliyatining asosi yoshligidan mavjud bo'ladi.

O'sib voyaga yetgani barobarida asta-sekin o'rganib boradi, nimaga o'rgatilsa, o'shani o'rganib boradi va bilib oladi.

Bilimni bir-bir o'zlashtirib boradi va oqibatda dono bo'ladi, so'ng uning bilimlari elga manfaatlar keltiradi.

Bolani bilimli qilmoqchi bo'linsa, unga yoshligidanoq bilim o'rgatib borish kerak.

Bola kichikligidan bilim o'rganib boradi. Aql-idrok esa tug'ma bo'ladi.

Bilimni, san'at-hunarni, fazilatlarni, ezgu fe'l-xulqni, yo'l-yo'riqlarni odam hayoti jarayonida o'rganadi va shakllantiradi.

Bilim, hunar, yo'l-yo'riqlarni asta-sekin o'rganadi, ulg'aygach, shakllanib bilimli bo'ladi.

\* \* \*

Shoshqaloqlik, kaltafahmlik, fe'li tezlik odatlari nodonlikning belgilaridir.

Shoshilib qilingan ish ko'ngilsizlikka olib keladi, shoshib yeb-ichganlar dardga muhtalo bo'ladilar.

Barcha ishda ham og'irlik va vazminlikka amal qil, faqat toat-ibodatgagina shoshilgin.

\* \* \*

Andisha har turli nojo'ya ishlardan saqlaydi, turli yaxshi ishlarga yo'llaydi.

Andisha juda yaxshi xislat, u kishi uchun chiroydir, barcha ezgu ishlar uchun boshbog'dir.

Tili chin, ko'ngli to'g'ri bo'lish kerak, xalqqa manfaat keltirish hamda o'zni baxtiyor qilish uchun bu xislatlar zarurdir.

\* \* \*

Qaysi ishni qilmoqchi bo'lsang, eng avval o'z ko'ngling bilan kengashib ko'rgin.

Barcha gaplaringni aytib odamlardan maslahat ol, lekin ko'ngil chopmasa, u ishdan o'zingni chetga olgin.

Boshqalardan ko'ra o'zingga o'zing mehribon-roqdirsan, ko'ngling xohlamagan ishni qo'ygin.

\* \* \*

Xizmat qilish uchun hammadan avval qonun-qoida va tartib-nizomni bilish zarur, xizmat qilish

yo'l-yo'riqlari, aytmish-demishlari to'g'ri bo'lishi kerak.

Kirish-chiqish, o'ltirish-turish, odob qoidalarini bilish kerak bo'ladi, xizmat qoidalarini bilmasa, odam behudaga mehnat chekadi.

\* \* \*

G'iybatchi kishiga aralashma, uzoqlash, g'iybatchi tilida o't yonadi, ko'rgin. Dunyoning fisqu-fasodlari g'iybatdan chiqadi.

Yana tamagir bilan yaqin bo'lma, shubhasiz u senga dushman bo'ladi.

Agar biror tamasi bo'lsa, bu tamagir seni ini yoki aka deb ataydi. Agar tamasi bo'lmasa, u yuzini o'giradi, ko'rmagandek o'zini uzoqlash-tiradi.

Tamasiz yoru birodarlar va do'stlar tutungin, ularga ishongin va qayg'usiz yashagin.

Yoru birodar, jo'ralar sevinch va qayg'uda, yaxshilik va yomonlik kunlarda kishining kuniga yaraydilar.

O'zing seni sevuvchilar ko'proq bo'lishini istasang, tuz va non yedir, chehrangni ochiq tut.

Bu ikki yo'riq tufayli odamlarning muhabbati ortadi, yomon va yaxshi kunlarda ular burchlarini o'tayveradilar.

Ta'limda bunga mos so'z aytilgan, bu so'zga amal qilgin, ey xulqi xush:

Odamlarga kulib boqib tuzu non yedirgin, shirin so'zlilik bilan chehrangni ochiq tutgin.



Odamni maftun qiluvchi mana shu ikki qiliqdir, men bulardan bo'lagini topmadim, topilsa sen uni ista.

\* \* \*

Ikki turli kishiga aralashma, uzoqlash, aralashdingmi, bas, fitna ko'taradi.

Biri — g'iybatchi, chaqimchilik qiluvchi kishi, biri — ikkiyuzlamachi, tamagir kishi.

Shuningdek, ichuvchi kishini do'st tutma, u vafo qilmaydi, ko'nglingni og'ritib qo'yadi.

O'z manfaatini istovchi do'stga ko'ngil berma, manfaat ko'rmasa dushman bo'ladi, undan umid uzaver.

Doim yaqinlik qilib tursinlar desang, so'ratuvchi bo'lginu so'rama, so'z bilan hojat qilaver.

\* \* \*

Tartib-nizom o'rgatuvchi, xalq bilan aralashib sinab biluvchi kishi juda yaxshi so'zlagan:

Johilni ortiq yaqin tutmaslik kerak, yaqin tutsang, shubhasiz, qilmaydigan ishlarni qiladi.

Ta'limda bundan ham yaxshiroq aytilgan, ishga bilim bilan qo'l urish kerak:

Johilga yaqinlashma, o'zingni tutgin, o'zini tutgan kishi baxtiyor yashaydi.

Johil kishidan zinhor uzoq tur, johilning xulqi mutlaqo tubandir.

\* \* \*

Uy olmoqni istasang qo'shnilarni surishtirgin,  
yer olmoqni istasang suvini surishtirgin.

Yomonga aralashma, salomat yurgin, fe'l-  
atvoringni to'g'ri tut, yo'rg'a otdek ziyrak bo'lgin.

So'zingni o'ylab so'zla — qayg'u-alam kelmaydi,  
vaqt — kunlaringni behuda ketkazma — afsus,  
attang kelmaydi.

Ortiqcha gerdayma — olqish topasan, ortiqcha  
xasis bo'lma — qarg'ish topmaysan.

\* \* \*

Do'stlar, yoru birodarlar, qarindoshlarning  
ziyofatlari bo'ladigan bo'lsa, borib ishlarni  
nazorat qilib ko'maklashish kerak.

Ziyofatda yot, begona mehmonlardan xabardor  
bo'lib, yegulik-ichguliklarning yetish yo yetmasli-  
gini, ko'p yo ozligini mezbonga aytib, tartib-  
qoidani nazorat qilib turish kerak.

Yaqinlar, qo'shnilar, oshna-og'aynilar sen  
uchun ziyofat bersalar yoki tangrini o'rtaga  
qo'ygan do'stlar seni ziyofatga taklif qilsalar,  
bularnikiga ham albatta borgin va ko'ngillarini  
olgin, ularni sevintirgin, o'zing ham sevingin,  
ey o'g'il.

\* \* \*

Ovqatni lazzatlanib yegin, yeyishingni ko'rgan  
uy bekasi o'zida yo'q sevinsin.

Birov mehnat singdirib senga ovqat hozirlasa, mehnatini behuda qilib, ovqatni ahamiyatsiz qoldirma.

Ko'ngli hushyor kishi juda to'g'ri so'zlagan, uning so'zlariga nazar solsang, rango-rang ma'nolar beradi:

Odamning ko'ngli yupqa shisha misolidir, uni juda ham ehtiyot qilgin, qo'zg'atma, sinadi.

Odamning odamdan ko'ngli qolsa halovat ketadi, yaqinlik uziladi, foyda uzoqlashadi.

Yaqinlik istasang, odamlar ko'nglini avaylagin, ko'ngil qolsa yaqinlik ketadi, umidingni uzaver.

Ovqatni me'yorida yegin, ko'p ovqat yemagin, bu haqda zakovatli aziz bunday deb ta'lim beradi:

Ko'p yeyuvchilarning ovqati badhazm bo'ladi, ovqati badhazm bo'lgan kishi doim dardmand bo'ladi.

Dard tomoqdan kiradi, shuning uchun nafsingni tiygin, ovqatni bir me'yorda oz-ozdan yeb, oz-ozdan ichgin.

\* \* \*

Yeb-ichiladigan narsalaring orasta, pokiza bo'lishi kerak, kelgan mehmonlar to'yib yeb turib ketsin.

Do'stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qilgin, haqlariga rioya qilgin.

Keladigani keladi, kelmagani esa, uni ham chaqirgan bo'lganliging uchun, sendan ko'ngli qolmaydi.



**ABUL FAROJ  
HIKOYATLARIDAN**

Buyuk faylasuf Buzurgmehrardan so‘rashibdi:  
— Odamlar nazarga ilmaydigan bebaho fazilat  
nima?

— Kamtarlik, — deb javob beribdi u.

\* \* \*

Bir qalandar shunday debdi:  
— Kimki keragidan ortiqcha yig‘ishga urinsa,  
boshqalar uchun jon kuydirayotgan bo‘ladi.

\* \* \*

Daraxtga osilib turgan ayolni ko‘rib Suqrot:  
— Hay-hay! Qani endi daraxtlar ham shunaqa  
hosil bersa ekan! — debdi.

\* \* \*

Arastudan:  
— Nega baxillarning tori hamisha tarang? — deb  
so‘rabdilar.

---

*Abul Faroj (1226—1286)* — Kichik Osiyoning Molatya shah-  
rida yashab ijod etgan shoir va adib.

Shunda u:

— Chunki ular faqat o‘zlarining omadsizligidan emas, balki o‘zgalarning yutug‘idan iztirob chekadilar, — deb javob beribdi.

\* \* \*

— Odamning tabiati juda g‘alati-da, — debdi bir donishmand, — davlati qo‘ldan ketsa qayg‘uradi-yu, ammo umri behuda o‘tib ketayotganiga aslo parvo qilmaydi.

\* \* \*

Suqrot bir boy bilan birga yo‘lga chiqqan ekan. Safarda, qaroqchilar shu o‘rtada izg‘ib yurishibdi, degan xabarni eshitib qolishibdi.

Boy:

— Obbo, xudo urdi! Ular meni tanib qolishsa, nima bo‘ladi, — desa, Suqrot:

— Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolishsa, nima qilaman? — debdi.

\* \* \*

Birov qattiq nonni suvga ivitib, huzur qilib yeb o‘tirgan faylasufni ko‘rib hayron bo‘libdi va:

— Qattiq nonni ham mazza qilib yeyish mumkin ekanmi? — deb so‘rabdi.

— Albatta. Men faqat qotgan non mazali bo‘lib tuyulgunga qadar nafsimni tiyib o‘tiranman, — debdi faylasuf.

\* \* \*

Buzurgmehr zindonda yotganda do'stlari undan:  
— Shunday qora kunga tushganingda o'zingga qanday tasalli beryapsan? — deya so'rashibdi.

— To'rt hikmatli so'zni qayta-qayta takrorlayapman, — debdi u. — Birinchisi, bularning hammasi peshonamda bor ekan, ko'ryapman, demak, taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi. Ikkinchisi, bu kulfat ming og'ir bo'lsa ham chidamasdan, sabr qilmasdan, iloj yo'q. Uchinchisi, hali bu holva, bundan og'irroq kunga ham tushish mumkin. To'rtinchisi, ehtimol bu ahvoldan bugun-erta qutulaman, balki allaqachon qutulgan hamdirmanu ammo o'zim bexabardirman.

\* \* \*

Bir qush sayyodning tuzog'iga ilinib qolibdi.

— Meni nima qilmoqchisan? — so'rabdi qushcha sayyoddan.

— Nima qilardim, so'yib yeyman, — debdi sayyod.

Qushcha yolvora boshlabdi:

— Meni juvonmarg qilma, yaxshi odam! Meni yeb baribir to'ymayсан, undan ko'ra qo'yib yubor, men senga uchta foydali maslahat beraman, ular senga mening go'shtimdan ko'ra ko'proq foyda keltiradi.

Birinchi maslahatimni hoziroq, sening qo'lingda turganimda eshitasan. Ikkinchi maslahatimni uchib, mana shu daraxtning shoxiga qo'nganimda

tinglaysan, uchinchisini esa huv anavi xarsang toshga borib qo'nganimda aytaman.

— Qani eshitaylik, bo'Imasa, — debdi sayyod.

— Birinchi maslahatim shuki — qo'ldan bergan narsangga hech qachon afsuslanma.

Bu maslahat sayyodga xush yoqibdi va u qushchani qo'yib yuboribdi.

— Ikkinchi maslahatim shuki, bo'lmagan narsaga zinhor ishonma! — debdi qushcha daraxt shoxiga qo'nib. Keyin qanotlarini qoqib, shundoq debdi:

— Ey, xom sut emgan inson! Meni so'yganingda-ku, ichimdan ikki dona bebaho marvarid toparding!

Sayyod nima qilishini bilmay, oyog'i kuygan tovuqday betoqat bo'la boshlabdi.

— Uchib ketmasingdan uchinchisini ham ayta qol, — deb iltijo qilibdi qushchaga.

— Bir pasda birinchi va ikkinchi maslahatni unutgan odamga uchinchisining nima keragi bor?! Qo'ldan bergan narsangga afsuslanma, bo'lmagan narsaga zinhor ishonma, deb hozirgina senga aytmadimmi? Sen esa meni qo'yib yuborganingga achinib, ichimda marvarid borligiga ishonib o'tiribsanmi? Qushning ichida marvarid bo'ladi, degan gapni hech qachon eshitganmiding! Ey laqma, marvarid bahrning qa'rida bo'ladi-ku?!

\* \* \*

Aflotun shunday degan ekan:

— Nodonning nodonligini ikki xislat aytib

turadi: birinchidan, gapi tuturuqsiz, ikkinchidan, javobi poyma-poy bo'ladi.

\* \* \*

Buzurgmehrardan:

— Nega do'stning dushmanga aylanishi osonu, dushmanning do'st bo'lishi qiyin? — deb so'rabdilar.

— Imoratni buzish qurishdan, jomni sindirish payvand qilishdan, pulni sarflash topishdan osonroq-da, — debdi u.

\* \* \*

Shoh Husravga shunday savol berishibdi:

— Kimlarga tezroq aql kirishini istarding?

— Dushmanlarimga, — debdi u. — Hammaga ma'lumki, aqlli odam yovuzlikdan qochadi. Bo'lar bo'lmasga yurish qilavermaydi. Esi pastdan xudo saqlasin. Ahmoqlarni bema'ni ishdan qaytarib bo'lmaydi.

\* \* \*

Bir podshoh Diogendan:

— Sening mol-davlatiing, yer-suving qayerda? — deb so'ragan ekan, u o'z shogirdlari va homiy-lariga ishora qilib:

— Mana shu kishilarda, — debdi, ularga bergan bilimlarni nazarda tutib.



\* \* \*

Bir faylasuf shunday degan ekan:

— Aqlli odam ahmoqni darrov taniydi, chunki aqli kirguncha bir vaqtlar o‘zi ham shu taxlitda bo‘lgan. Ammo ahmoq aqlli odamni tanishi amrimahol, chunki u hech qachon aqlli bo‘lmagan.

\* \* \*

Bir kishi:

— Hayotda ko‘zlamagan voqea sodir bo‘lib qolsa, shundan yomoni yo‘q, — debdi.

— Ko‘zlab yurgan narsang sira amalga oshmasa, undan ham yomonroq, — debdi ikkinchisi.

\* \* \*

Anushervon shunday degan ekan:

— Bekorchilik kishini behuda xayollarga olib boradi, behuda xayollar esa kishining osoyishtaligini buzadi.

\* \* \*

Bir faylasuf mash‘al ko‘tarib borayotgan qizni ko‘rib:


— Qarang! O‘tga o‘t tushibdi! — debdi.

\* \* \*

Pifagorning uzugiga quyidagi so‘zlar o‘yib yozilgan ekan:

«Bir lahzalik omaddan ko‘ra, bir lahzalik omadsizlik afzal».

2—Ibratli hikmatlar



\* \* \*

Bir donishmand shunday degan ekan:

— Pashsha yara chiqqan a'zogatina qo'nganidek, ahmoq ham odamlarning faqat nuqsonini ko'radi.

\* \* \*

Bir kishi shunday degan ekan:

— Men og'iz ochmaganimdan ko'ra og'iz ochganimga ko'p marotaba pushaymon bo'lganman.

\* \* \*

— Ikki holatda kishining izzat-nafsiga putur yetadi, — debdi bir donishmand. — O'zing uchun bir nima iltimos qilsang yoki ahmoqlar bilan muomala qilishga majbur bo'lsang.

\* \* \*

Hakim bir bemorga:

— Go'sht bilan baliq yemagin, — debdi:

— Ey birodar, go'sht bilan baliq sotib olishga qurbim yetganda ehtimol sening oldingga kelmagan bo'larmidim, — debdi bemor.

\* \* \*

Ovchining qopqoniga tushgan ikki tulkidan biri:

— Endi qayerda uchrasharkanmiz, — deb qo'yibdi.

— Qayerda bo'lar edi. Uch kundan keyin po'stak bozorida bo'lsa kerak-da, — debdi ikkinchisi.



## KALILA VA DIMNANING SO‘ZLARI

Kalila dedi: — Naql qilibdurlarki, bir maymun bir duradgorning yog‘och ustida o‘tirib pona bilan uni yorayotganini ko‘rdi. Duradgor bir ponani qoqqandan keyin ikkinchisini chiqarib olar, uni boshqa yerga qoqar va shunday qilib yog‘ochni yorib borardi. Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko‘rgan maymun unga daxli bo‘lmagan ishga aralashib duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo‘ldi. U orqasini yog‘ochning yorig‘iga qilib, yuzini ponaga qaratib yog‘och ustiga minib oldi. Uning dumi yog‘ochning yorig‘iga tushib turgandi, u ponani sug‘ura boshladi. Maymun ponani chiqargan ham ediki, dumini yog‘och qisib oldi. Maymun hushidan ketdi, to duradgor yetib kelguncha shu ahvolda yotdi. Duradgor esa kelib maymunni urib o‘ldirdi. Shuning uchun debdurlarki: «Duradgorlik maymunning ishi emas».

---

«Kalila va Dimna» — III—IV asrlarda Hindistonda yaratilgan asar.

\* \* \*

Dimna dedi: — Odamlarning mavqei har xil bo'ladi. Iste'dod va qobiliyatli odamlar past martabadan baland martabaga chiqib oladilar. Irodasi zaif, aqli kam bo'lganlar esa yuksak mavqedan pastga tushib ketadilar. Yuksak darajaga chiqmoq juda qiyin, pastga qulash esa juda oson gap. Chunonchi, og'ir toshni yerdan uzishga ko'p kuch va mehnat talab qilinadi, uni yerga tashlash uchun esa kuch sarf etilmaydi.

\* \* \*

— Katta va mas'uliyatli ish, og'ir yuk kuchli va baquvvat odamni charchata olmaydi. G'ariblik va yolg'izlikdan aqlli odam qo'rqmaydi... Farosatli va hushyor odamlar har narsaning yo'lini tez topa oladilar.

\* \* \*

— Ishning muvaffaqiyatli tugashi yordamchilarning ko'pligida emas, ishbilarmonliklaridadir. Baland toqqa chiqqan bilan odamning nufuzi baland bo'lmas, balki inson o'z boshiga bir dunyo balo orttiradi. Hunar egalari quyi mansabda bo'lsalar-da, aqlli odamlar ularga mensimaslik bilan qaramasliklari kerak.

\* \* \*

— Sichqon hamma bilan hamxona bo'lsa ham uning ozori borligi uchun odamlar ularni qirib

yo'qotishga tirishadilar. Lochin yirtqich qush bo'lsa ham undan foydalanish umidida odamlar yaxshilab parvarish qiladilar.

\* \* \*

Dimna dedi: — Deydilarki, bir tulki o'rmon oralab ketayotib, bir daraxtning tagida nog'ora yotganini ko'rib qolibdi. Shamol esgan sari daraxt butoqlari nog'oraga tegar va nog'oradan dahshatli ovozlari chiqar edi. Tulki nog'oraning ovozi yo'g'onligi va jussasining kattaligiga qarab nog'oraning yog'i bilan go'shti ham ovozi va jussasiga yarasha ko'p bo'lsa kerak, deb og'zining suvi keldi. Ko'p urinib nog'orani yorishga muvaffaq bo'ldi. Lekin qurigan teridan bo'lak hech narsa topmagach: «Gavdasi yo'g'on va ovozi baland narsaning ichi bo'sh bo'lar ekan», — dedi.

\* \* \*

Dimna dedi: — Naql qilibdurlarki, yo'ldan uzoq, o'tkinchilardan xoli bir yerda ko'l bor edi. Unda uch baliq yashar edi. Bulardan ikkisi tadbirchan va ehtiyotkor, biri esa xom va tajribasiz edi. Kunlarning birida tasodifan ikki ovchi ko'l yonidan o'tib qoldi, ko'zlari uchta baliqqa tushdi. Ular ertaga kelib uchala baliqni tutishga va'dalashib jo'nab ketdilar. Baliqlar ularning so'zini eshitgan edilar. Ularning biri tadbirli bo'lib, zolim zamoning zulmi va g'addor falakning vafosizligini ko'rgan, aql va tajriba orttirgan edi. U darhol ehti-

yot chorasini ko'rib, suv kelar tarafdin chiqib, boshqa ko'lga borib oldi. Ko'p vaqt o'tmay baliqchilar kelib, suvning kirar va chiqar tomonini mahkam bekitdilar.

Birinchi baliqqa nisbatan tajribasizroq, lekin aql va farosatdan mahrum bo'lmagan ikkinchi baliq vaziyatni ko'rib shunday dedi: — Fursatni qo'ldan berdim, g'ofillar ishining oxiri shunday bo'ladi. Endi tadbir va hiylani ishga solish payti keldi. Tipirchilab u yoq-bu yoqqa qochgan bilan foyda yo'q. Umidsizlikka tushmay najot yo'lini axtarmoq kerak.

Shuni deb baliq suv yuziga qalqib chiqdi va o'zini o'lganga solib yotdi. Bir baliqchi uni olib, o'lgan gumon qildi va suv chiqib ketadigan ariq bo'yiga tashladi. Baliq sudrala-sudrala oqar suvga tushib oldi, hiyla ishlatib o'z jonini qutqardi.

Xom va tadbirsiz baliq esa o'zini yo'qotib, u yoqdan-bu yoqqa qochib yurar, goho suv ostiga sho'ng'ir, goho yuzaga chiqar edi, oqibat baliqchilar to'riga ilindi.

\* \* \*

Dimna dedi: — Aqlli odam olishuvga oshiqmaydi, tayyorgarlik ko'rmasdan katta va tahlikali ishni boshlamaydi. Dushman bilan mumkin qadar yumshoq muomala qilib nizoni tinchlik va do'stlik yo'li bilan hal etishga tirishadi. Donishmand kimsalar o'zlarining zaif dushmanlariga ham mensimaslik bilan qaramaydilar, chunki dushman kuchsiz bo'lsa, har xil hiyla va nayrangga murojaat qiladi, shu yo'l bilan u g'alaba qozonishi mumkin.

\* \* \*

Kalila dedi: — Bir to‘da maymunlar bir tog‘da yashar edilar. Bir kun quyosh botib, dunyo yuzini zulmat pardasi qoplaganda jilovsiz izg‘irin har tomonga yugura va maymunlarga hujum qila boshladi. Bechora maymunlar sovuqdan titrar va isinish uchun biron chora axtarar edilar. Nogoh bir joyda yaltiroq qurti ko‘rib qoldilar. Uni cho‘g‘ deb o‘ylab, talay o‘tin yig‘ib atrofiga qaladilar va hadeb puflay boshladilar. Ularning qarshilaridagi daraxt ustida bir qush: «Bu olov emas, kechalari yaltirab ko‘rinadigan yaltiroq qurt», — deb qichqirib, faryod qilar edi. Maymunlar esa uning gapiga e‘tibor bermas edilar. Shu asnoda o‘tkinchi bir odam kelib ahvolni ko‘rdi va qushga: «O‘zingni ko‘p koyitma, ular sening so‘zingga quloq soladigan, foydasiz ishdan voz kechadiganlardan emas, ularga nasihat qilish — qilichni toshga urish va shakarni suv ostiga bekitish bilan barobardir», — dedi.

Qush odamning so‘zlariga e‘tibor bermay, maymunlarning xatosini tushuntirish uchun daraxtdan tushib ular yoniga keldi. Maymunlar uni o‘rab olib boshini uzib tashladilar.

\* \* \*

Kalila dedi: — Ikki o‘rtoq bor edi. Biri sodda va ikkinchisi hiylagar edi. Ular bir kuni savdogarchilik qilish uchun bir yoqqa ketisharkan, yo‘ldan bir xalta tilla topdilar, soddadil hiylagarga dedi: —

Omadimiz o'ngidan keldi, endi bularni bo'lib olib orqaga qayta qolaylik.

Hiylagar dedi: — Taqsim qilib o'tiramizmi? Hozir kimga qancha kerak bo'lsa olib, qolganini ehtiyot qilib bekitib ketaylik. Zarur bo'lganda yana kelib keragini olarmiz.

Soddadil uning so'ziga ko'nib «xo'p» dedi. Oltindan keragicha olib, qolganini bir daraxt ostiga ko'mdilar. Shaharga kelib, har biri o'z uyiga ketdi. O'zini aqlli deb hisoblagan hiylagar ertasi kun borib, ko'milgan tillaning hammasini olib ketdi. Soddadil o'z qo'lidagini xarjlab bo'lgach, hiylagar qoshiga kelib dedi: — Yur, oltindan picha olib kelaylik, juda muhtoj bo'lib qoldim.

Hiylagar u bilan birga tilla ko'milgan joyga keldi, lekin hech narsa topmadilar. Hiylagar soddadilning yoqasidan ushlab: — Tillalarni sen olgansan, chunki bo'lak hech kimning bundan xabari yo'q edi, — dedi. Soddadil bechora, olmadim, deb har qancha ont ichsa ham foydasi bo'lmadi. Hiylagar uni qoziga olib borib, bo'lgan gapni aytib berdi va tillalarni da'vo qildi. Qozi so'radi: — Guvoh va dalil bormi?

Hiylagar dedi: — Ostiga tilla ko'milgan daraxt guvohlik berib, tillani bu noinsof olib ketgan.

Qozi bu so'zni eshitib, hayron bo'ldi. Ancha gapu so'zdan keyin ertasiga guvohlik bergan daraxt yoniga borishga qaror qilindi. Hiylagar sevinib uyiga keldi va otasiga dedi: — Bu tilla hangomasini o'z foydamizga hal etish sizga bog'liq bo'lib qoldi. Sizga ishonib daraxt guvohlik beradi, dedim. Endi



mening gapimga ko'nsangiz, olib kelgan tillalarim o'zimizga qoladi va yana shuncha tillaga ega bo'lamiz.

Otasi so'radi: — Men nima qilishim kerak?

Hiylagar dedi: — U daraxtning ichi kovak bo'lib, unga o'n odam bermalol yashirinsa bo'ladi. Kechasi borib u yerga joylashib olishingiz kerak, ertaga qozi daraxt tagiga kelganda, daraxt nomidan guvohlik bersangiz bo'ldi.

Otasi dedi: — Ey o'g'il, makr-hiyla ko'pincha hiylagarning o'ziga zarar yetkazadi. Tag'in sening makring ham qurbaqa makriga o'xshab qolmasin.

O'g'li so'radi: — Qurbaqa qanday makr ishlatibdi?

Hikoyat. Otasi dedi: — Bir qurbaqa ilonga qo'shni edi. Qurbaqa har bolalaganida ilon uning bolalarini yeb ketardi. Qurbaqaning bir qisqichbaqa do'sti bor edi. Bir kun qurbaqa uning yoniga borib, dedi: — Ey birodar, menga bir chora ko'rsat. Keyingi paytlarda bir zo'r va shafqatsiz dushman paydo bo'lib qoldi, u bilan olishib yenga olmayman. O'zim bu yerga o'rganib qolganim uchun hech qayoqqa keta olmayman. Manzilim go'zal, ob-havosi musaffo, yeri zumraddek yam-yashil.

Qisqichbaqa dedi: — G'am yema. O'zingdan kuchli dushmanni yolg'iz hiyla bilangina yengib bo'ladi.

Falon joyda lacha degan bir hayvon yashaydi. Sen bir qancha baliq tutib, ularni o'sha hayvonning uyasidan to ilonning inigacha to'kib bor. U hayvon hid bilib uyasidan chiqadi, baliqlarni yeb-yeb ilonning uyasigacha keladi va sen ilondan xalos

bo'lasan. — Qurbaqa bu hiyla bilan ilonni o'ldirtirdi. Bir necha kundan so'ng haligi hayvon ovqat izlab boyagi baliq yegan yo'lidan keldi, lekin baliqni topmay, qurbaqani va uning bolalarini yeb ketdi.

Bu masalni men, har kim birovga choh qazisa o'zi yiqilib tushishini ko'rsatish uchun so'zlab berdim.

Hiylagar o'g'il dedi: — Ota, qo'ying, gapni qisqa qiling. Bu ish andak mehnat talab qilsa hamki, foydasi ko'p.

Chol bechorani mol-dunyo hirsini va otalik muhabbati yo'ldan urdi, u o'g'lining gapiga kirdi.

Ertasi kuni qozi shahardan chiqib daraxt ostiga keldi. Tomosha qilish uchun anchagina boshqa odamlar ham unga ergashib kelgan edi. Qozi yuzini daraxtga o'girib, tillalarning nima bo'lganini so'radi. Daraxtdan, tillalarni soddadil olib ketgan, degan sado chiqdi. Taajjublangan qozi daraxt atrofida aylanib yurib, unga diqqat bilan razm soldi. Daraxtning katta kovagi borligini ko'rdi-da, masalani tushundi. O'z-o'ziga: «Xiyonatga marhamat yo'q», — deb daraxt atrofiga shox qalatdi va o't qo'ydi. Chol bir soatcha chidab jim turdi, lekin halok bo'lishini bilib yolvora boshladi. Qozining buyrug'i bilan uni daraxt ichidan chiqardilar. Qozi savol-javob qilib haqiqatni bildi, soddadilning to'g'riligi, hiylagarning makri ma'lum bo'ldi. Chol chekkan azoblariga va nomusiga chiday olmay shu yerning o'zidayoq jon berdi. Hiylagarni jazolab,

adabini berdilar va otasining o'ligini yelkasiga qo'yib shaharga jo'natdilar. Soddadil esa to'g'riligi tufayli hamma tillalarni olib o'z uyiga ravona bo'ldi.

\* \* \*

Kalila dedi: — Unchalik boy bo'lmagan savdogar bir kun safarga chiqmoqchi bo'ldi. Uning yuz botmon temiri bor edi. Shu temirni bir oshnasining uyiga qo'yib ketdi. Savdogar safardan qaytib temirni so'rganida oshnasi dedi: — Men omonatingni uyning burchagiga qo'yib xotirjam yuraveribman, o'sha burchak yonida sichqonning uyasi bor ekan, la'natilar fursatni g'animat topib, butun temirni kemirib qo'yishibdi.

Savdogar dedi: — Gaping to'g'ridir. Men ham sichqon juda temirga o'ch bo'ladi deb eshitgan edim.


Uy egasi suyunib, savdogar so'zimga ishondi va temiridan voz kechdi, deb mulozamat qila boshladi, so'ng dedi: — Uzoq safardan kelibsan, mening uyimda qol. Mehmon qilaman.

Savdogar dedi: — Bugun zarur ishlarim bor, ertaga kelarman.

Savdogar ko'chaga chiqib oshnasining o'ynab yurgan o'g'lini olib ketib, o'z uyiga yashirib qo'ydi. Ertasi kun savdogar oshnasining uyiga kelganda u yig'lab o'tirar edi. Savdogardan: — O'g'limni ko'r-madingmi? — deb so'radi. Savdogar dedi: — Kecha senikidan ketayotganimda bir qirg'iy bir go'dakni changaliga olib uchib ketayotganini ko'rib qoldim. O'sha sening o'g'ling bo'lmasin?

Oshnasi jahl bilan dedi: — Sen axir aqlga to‘g‘ri kelmaydigan yolg‘onni nega gapirasan?! Esingni yedingmi, axir kichkina qirg‘iy bir bolani ko‘tarib olib keta olarmidi?

Savdogar istehzoli kulib dedi: — Unchayam ajablanma. Axir yuz botmon temirni sichqon yeb qo‘yadigan bu shaharda o‘n botmon keladigan bolani qirg‘iy ko‘tarib ucholmaydimi? — Oshnasi gapni qayerga burayotganini fahmlab uy egasi dedi: — Sichqon temirni yemagan, bolamni keltirib temiringni olib ket.



## KAYKOVUSNING AYTGANLARI

Ey farzand, ... aql yuzasidan bilgilki, ota-onaning izzat va hurmatini bo'yinga olish lozimdir. Nima uchun ota-onamni hurmat qilaman deb ko'nglingga keltirma.

Bilgil, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadilar...

Agar har farzand aqlli va dono bo'lsa, ota-onaning mehri-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va senga yaxshilik o'rgatishdir.

Ey farzand, ota-onaning ko'nglini ranjitma, ularning qalbini azoblama.

Sen ota-onaning haqiga din nuqtai nazaridan rioya qilmasang ham, aql va muruvvat nuqtai nazaridan rioya qil, ko'rgil, ota-ona seni jon-dil bilan parvarish qilmishlar, agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan, chunki har kishi ota-ona (asl)ning

---

*Kaykovus (1021)* — XI asrda yaratilgan «Qobusnoma» asarining muallifi.

yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi va o'z farzandingning seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki sen ota-onang uchun nima ish qilsang, farzanding ham senga shunday ish qiladi.

Odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydi. Daraxtni yaxshi tarbiya qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi, shuningdek, ota-onaga izzat va hurmatni ko'proq qilsang, sening haqingdagi ularning duosi tezroq mustajob bo'ladi...

Meros olish hirsini bilan ota-onaning o'limini aslo istamagil...

(Molsizlikdan qashshoq bo'lsang ham, aqldan boy bo'lishga harakat qil, chunki mol bilan boy bo'lgandan aql bilan boy bo'lgan yaxshiroqdir: aql bilan mol to'plasa bo'ladi, ammo mol bilan aql to'plab bo'lmaydi. Johil tezda kambag'al-lashadi, ammo bilgilkim, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o'g'ri olib keta olmas, o'tda yonmas, suvda oqmas.)

Agar aqling bo'lsa, hunar o'rgan, chunki hunarsiz aql libossiz tan yoki afti yo'q odamdir, debdurlarki, bilim — aql siymosidir.

Ey farzand, agar sen har qancha notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bil-u, oz so'zla; kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz

deydi va aqlsiz kishi jim o'tirsa, odamlar aqlli hisoblaydilar. Agar sen juda ham pok, yomon ishlardan o'zingni saqlovchi bo'lsang ham, o'zingni maqtamagil, chunki o'z foydang uchun guvoh bo'lsang, seni, hech kim eshitmaydi, harakat qilki, xalq seni maqtasin va shunday so'zlagilki, bu so'z senga foyda keltirsin, bekor va zoye ketmasin.

Ey, farzand, yolg'on va behuda so'z aytmagilkim, behuda so'z devonalarning so'zidir. Har kishiga gapirmoqchi bo'lsang, qaragilkim, u sening so'zning xaridorimi yo yo'qmi.

\* \* \*

Ey farzand, sen har qancha yigit bo'lsang ham, aqling qari bo'lsin. Men senga: «Yigitlarga o'xshamagil» demoqchi emasman. Yigitlikni mukammallashtir, yengil tabiatli yigitlardan bo'lma, yigitlarga og'irlik munosibdir va donishmand Aristotolis debdir: «yigitlik jununning bir nav'idir». (Lekin sen) johil yigitlardan bo'lmagilki, johillikdan balo paydo bo'ladi. Yigitlik zamonida yashagilki, qarigan chog'ingda o'z holingga yig'lamagil. Har qancha yosh bo'lsang, o'limdan bexabar bo'lma (chunki o'lim) na qarini va na yosh yigitni qo'yadi.

Hikoyat. Shunday eshitganmanki, bir shaharda bir san'atkor ustaning do'koni bor edi va qoziqqa bir ko'zani osib qo'yardi. Qabristonga o'lik keltirsalar, usta bir tosh olib ko'zaga tashlardi.

Usta har oyda ko‘zadagi toshlarni sanab, bir oyda qancha odam o‘lganini bilardi, yana ko‘zadagi toshlarni olib tashlab, ko‘zani bo‘sh qilib qoziqqa osib qo‘yar va o‘lik kelishi bilan ko‘zaga bir oygacha tosh tashlardi. Necha yilgacha usta shu bilan mashg‘ul bo‘ldi. Kunlardan bir kuni usta o‘ldi, bir necha kundan so‘ng ustani bir odam qidirib keldi. Bu odamning uning o‘lganidan xabari yo‘q edi, qarasa do‘konning eshigi bog‘liq edi. U odam ustaning qo‘shnisidan: «Usta do‘konida yo‘q, qayerga ketgan?!» — deb so‘radi. Qo‘shnisi: «San’atkor usta ham ko‘zaning ichiga tushdi», — deb javob berdi.

\* \* \*

Ey, farzand, hushyor bo‘l, yigitlik vaqtingda takabbur bo‘lma...

Hamma vaqt yigitlar bilan hamsuhbat bo‘la-verma, qarilar bilan ham hamsuhbat bo‘l. Majlisni ham qarilar, ham yigitlar suhbati bilan ziynatla, (chunki) qarilarning bilganini yigitlar bilmaydilar. Yigitlarning odati shundayki, qarilarni masxara qilib o‘ynaydilar, (chunki) ular qarilarni yigitlikka muhtoj deb biladilar, shunga asoslanib qarilarni masxaramazax qilib, behurmat qilishlari yaxshi emas.

Yigit o‘zini hammadan dono deb biladi, ammo shu ishi bilan hammadan nodondir. Bas, ey, farzand, ana shunday yigitlardan hisoblanma, qarilarni hurmat qil, ularning haqida behuda so‘z aytma, ularning oldida odob va kamtarlik bilan so‘zla.



Hikoyat. Shunday eshitganmanki, yuz yoshga kirgan va qaddi yoydek bukilgan bir qari kishi qo'liga hassa ushlab borar edi. Bir yigit uni masxara qilib dedi: «Ey shayx, ushbu yoyni qanchaga sotib olding, ayt, men ham sotib olay». Shayx: «Agar uzoq yashasang, sabr qilsang, bu yoyni senga tekinga beradilar», — deb javob beribdi.

Ey farzand, qarilikka yetsang, yigitlardan uzoq bo'l, chunki qarilikda yigit fe'lini qilish yomon ko'rinadi. Yigitlikda esa qarilar fe'lini qilmoq ham yomon ko'rinadi. O'ziga oro bergan qaridan qoch, chunki tashqi tomonini bezagan qari johil yigitdan yomonroq bo'ladi, nopok qarilardan qoch, yigitlik zamonini g'animat bil va unga munosib ish qil.

Hamma xaloyiqning umri quyoshga o'xshaydi: yigitlarning quyoshi sharqdadir, qarilarning quyoshi g'arbdadir, g'arbda bo'lgan quyosh tez botadi, shuning uchun qarilarga yigitlik fe'lini qilish nomunosibdir.

\* \* \*

Bor molingga qanoat qil, qanoat bitmas-tuganmas davlatdir va sen qanday ahvolda bo'lsang ham, rizq-ro'zingga yetishasan.

Mol berish xalqning ziynatidir, ammo isrofdan hazar qilgil.

Har ishning bir sababi bordir. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishgina emas, ovqatda, kishining qiliqlarida, nutqida ham isrof bo'ladi, isrof tanni aldaydi,

nafasni ranjitadi, aqlni qochiradi va tirikni o'ldiradi, ko'rmaysanmi, chiroqning tirikligi yog' bilandir. Agar yog'ni haddan tashqari ko'p solsang, yog' pilikning boshiga chiqib chiroq o'chadi, yog' esa chiroqning yonishiga sababchi edi, isrof jihatdan o'limiga sabab bo'ldi...

Donishmandlar debdilarki, har qanday ishda ham isrof qilmagil, isrofgar hamma vaqt ziyon ko'radi. Ammo tiriklikni talx qilgudevdek qattiq (pishiq) ham bo'lmagil. Turmushning zarur ishlari uchun baxillik qilmagil. Joningga javr qilma: mol har qancha aziz bo'lsa ham, joningdan aziz emas. Alqissa harakat qilib yiqqan molingni joy-joyiga sarf qilg'il.


\* \* \*

Ey farzand, o'zingni mol jam qilishdan g'ofil tutmagil, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil. Mol uchun o'zingni xavf-xatarga qo'yma.

Molni jam etganingdan keyin, yaxshi saqlagil va har bir yaramas ish uchun sarf qilaverma, chunki molni saqlash yig'ishdan qiyindir. Agar kerak vaqtida zarur ish uchun sarf qilsang, harakat qilib uning o'rnini tezda to'ldirgil. Agar xarj qilingan narsaning o'rnini to'ldirmasang, Korunning boyligidek bo'lsa ham, bir kunda yo'q bo'ladi. Mol doim turadi deb, unga ko'ngil qo'ymagil, chunki bir kun emas, bir kun moling yo'q bo'lib qolsa diltang bo'lmagaysan. Agar moling ko'p

bo'lsa, uni qadrlab, bir tadbir bilan ishga yaratgil, qadr-qimmat va tadbir bilan (ishga) yaratilgan ozgina mol qadr-qimmat qilinmagan, tadbirsiz ishlatilgan ko'p moldan yaxshiroqdir. Agar mol oz bo'lsa, yaxshi saqlashni zarur deb bilgilki, kimki ozgina molni saqlay olmasa, ko'pni ham saqlay olmaydi.

Mol yig'ishda sustkashlik qilmagil, chunki sustkashlik baxtsizlikning shogirdidir. O'zing mehnat qil, chunki mol mehnat bilan yig'iladi, sustkashlik bilan parokanda bo'ladi. Donishmandlar deganlarki, harakat qiling, obod bo'lasizlar va ozga qanoat qiling, badavlat bo'lasiz, kamtar bo'ling, do'stingiz ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham ko'p mehnat bilan topilgan davlatni sustkashlik bilan qo'ldan boy bermoq aqlli kishining ishi emasdir, qashshoq bo'lib qolsa, pushaymon qilish befoydadir. Demak, mehnat ustiga mehnat qilg'ilki, moling barqaror bo'lgay va sen undan bahramand bo'lgaysan. Mol qanchalik aziz bo'lsa ham, do'stlardan ayamagil, chunki molni go'ringga olib ketmaysan, ammo kiriming qancha bo'lsa, chiqiming ham shu miqdor bo'lishi lozim, toki sen qashshoqlikka giriftor bo'lmagaysan.



**HAZRAT NAVOIY  
O'GITLARI  
(Nasriy bayoni)**

Qanoat — bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi bordir.

Qanoat — kishi ko'ngliga ravshanlik yetkazadi, ko'z undan yorug'lik kasb etadi. Qanoatli darvishning qattiq noni tamagir shohning noz-ne'mat to'la dasturxonidan yaxshiroqdir. Qanoatga odatlangan faqirning yovg'on umochi — olg'ir boyning novvotu holvasidan totliroqdir.

Shoh udirki — olmaydi-yu, beradi, gado udirki — sochmaydi-yu teradi. Har kim qanoatga odatlangan bo'lsa, shohlik-gadolik tashvishini bilmaydi. Garchi, tirikchilik uyi doim tor, bu haqda qancha mubolag'a qilsang, o'rni bor. Qanoat bir qo'rg'onki, unga, kirsang, nafsning g'alvasidan qutulasan. Qanoat bir cho'qqiki, unga chiqsang,

---

*Alisher Navoiy (1441—1501) — buyuk o'zbek shoiri.*

do'st-dushmanga muhtojlikdan xalos bo'lasan. Qanoat — xokisorlikdirki, natijasi yuksaklik, muhtojlikki, foydasi ehtiyojsizlik. Qanoat — ekindir, urug'i boylik; daraxtdir — mevasi muhtojsizlik, maydir — achchiq, lekin nash'asi shodlantiruvchi, yo'ldir — qattiq, lekin borar manzili sevintiruvchidir.

Qanoatda qancha rohat va farog'at bo'lsa, uni aksi bo'lgan tamada shuncha razillik va uqubat bor.

Xasis tabiatli odamning do'sti tilamchi va nokasdir; razolat ularning fe'l-atvoriga mosdir. Ular munosabatiga kamsitishlik va yengiltaklik xosdir. Har kimda bu sifatlar mavjud bo'lsa, bunday odamni xalq yomon ko'radi. Ana shu tufayli nokaslik, razillik rivojlanadi, odamgarchilik va insoniylik esa zavol topadi. Bular or-nomus uyini kuydiruvchi bir o'tdir; izzat-hurmat xirmonini sovuruvchi va ulug'vorlik shamini o'chiruvchi bir yeldir. Tamagirning biror nima olishga o'chligi, xuddi yeb to'yemasning taomga ochko'zligiga o'xshaydi. U biri tubanlar harakati bo'lsa, bu biri hayvonlar odati.

Qanoat shunday bir javharkim, elni bu ikki balodan xalos qiladi va xalqni bunday odatdan qutqaradi.

Tamagirlik va nokaslik shunday yomon fe'li, bular go'yo ikki yoqimsiz egizakdir. Unisi bundan yomon — bunisi undan yomon; ikkalasi ham yomondan yomon. Bularning biri nokas va birining iqboli past; ikkalasining mohiyati birdir.

\* \* \*

Inson uchun yana bir ulug' farz — ehson qilishdirki, bu haqda ko'p gaplar aytilgan. Masalan, «Odam yaxshiliklarning quli», degan hadis ham shu jumladandir.

Hamma ta'limotlarda va hamma millat kishilari qoshida — yaxshilikka yaxshilikdan boshqa mukofot yo'qligi isbotlangan.

Ehson degan sifatni abadiy saodat deb, uni fitna va ofat ya'jujini daf qilish uchun qurilgan bir to'siq deb bil. Insoniyat bog'ining eng go'zal daraxti ehsondir va odamiylik xazinasining eng bebaho gavhari ham ehsondir. Barcha yoqimli sifatlar va tahsinga loyiq ahvollar ehson natijasidir va ehson tufayli yuzaga kelgandir. Barcha yaxshiliklarning jami — ehsondir va barcha yaxshiliklar haqiqatan undandir.

\* \* \*

Vafo — shunday bir pokiza ko'ngilli mahbubaki, u tabiati va ko'ngli pok bo'lmagan kimsaga rom va ulfat bo'lmaydi; vafo shunday bir nazokat matlubaki, u zoti toza, tabiati pok bo'lmagan odamga yaqinlashmaydi va unga rag'bat ko'rsatmaydi. Vafo — shunday asl gavharki, u insoniyat tojiga ziynatdir.

\* \* \*

Hilm (muloyim tabiatlik) inson vujudining hushmanzara mevalik bog'idir va odamiylik

olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillilik — hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.

Hilm — axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim daydi turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz, e'tiborsiz bo'ladi.

Bu davr bog'ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go'yo og'ir tabiatli va yomon fe'lli deb kamsitiladilar. Ularning o'zlari esa, quyundek tuproqni havoga to'zitadilar va yengiltabiatlari bilan boshlarini go'yo ko'kka yetkazadilar. Tog' jussasini oyoq osti qilmoq — odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq — bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o'tdek otashdonni qizdirishdan o'zga ishni bilmaydi. Yel — garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog' qoyalari

kamariga qanday ta'sir qila oladi? O't tog' etagi-dagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi...

Yel agar ko'kka yetsa ham, bari bir yengil va qadrsiz; tog' agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho'g' kabi qizil la'l bor.

\* \* \*

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog'i — eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi; yo ko'ngliga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am — uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki: «nafasning joni bor...»

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbai ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam — donishmand, oqil; so'zga erk bergan odam — beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil — insondagi eng yaxshi a'zoldir. Bo'stonda — gulsafsar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.



Odam — tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.

\* \* \*

Tama — xorlikka sabab; tamagir boy — xor va tuban. Kimki tama bilan biror narsani olishi mumkin bo'lsa-yu, lekin olmasa bu tama yo'qligi bo'lib, har qanday sahovatdan qolishmaydi. Bu xil saxiylar — olijanobu, tama ahli esa — xasisu nokaslardir.

\* \* \*

Ko'p gapiruvchi, ko'p yeguvchi — do'zax to'riga oshiqib ketuvchi. So'zlamogga berilgan, yemoqqa qul bo'lgan odam bilim sharofatidan mahrum bo'ladi. Hasadchi — bemor; balki halokatli dardga giriftor. Fisq-fujurchi va may sotuvchi — ziyon ko'ruvchi va ziyon keltiruvchidir; ig'vogar, g'iybatchi — najosat yeguvchi. Bangi va nashavand — odamzod nomusini yerga uruvchi. Tamagirning umri zoye; malolliги oshkora. Erkak kishi ko'p yasansa, beva ekani bilinadi, yasantusan ayollar odatidir.

\* \* \*

Hazil qilaverishdan hurmatsizlik ortadi; hazilning oxiri janjalga olib keladi. Ko'p hazillashish —

nomus va hayo pardasini chok etadi; adab va hurmat egalarini beburd va beobro' qiladi. Qo'lingdan kelgancha ta'zim va adab binosini yiqitma; hayo va hurmat pardasidan tashqari chiqma!

\* \* \*

Xato qilmoq — odamga xos xususiyatdir. Xatosini anglab, ogoh tortgan saodat egasidir. O'z xatosini e'tirof etgan odam — bu xatodan xalos bo'la oladi. Kimki, xatosini bo'yniga olmay, behuda dalil keltirib aljiray bersa, gunohi yanada ortadi. Xato qilgan o'zini qanchalik lof urib oqlasa, xatosi shunchalik ro'yirost ko'rinadi. Uning ustiga kibrlanib tortishuv olib borsa, xalq orasida battarroq rasvo bo'ladi.

\* \* \*

Qariyalar muhtojlikka tushib qolsa, kasb-hunar qila olmasa va tilashga tili bormasa, ularga rahm-shafqat qilishga shoshil va qo'lingdan kelgancha ehson qil. Lekin, kambag'al yigit ketmon chopa olsa, o'tin tashimoqni uddalasa, unga ehson qilmoq — isrof qilmoqdir.

\* \* \*

Tinch va xotirjamlik bilan ichilgan yovg'on umoch, hijolat va mashaqqat bilan yeyilgan qandli kulchadan yaxshiroq. Eski chopon bilan bemalol tuproqda o'tirmoq — zarbof to'n kiyib birov oldida tik turgandan yaxshiroq.

\* \* \*

Yigitlik — umr gulshanining bahoridir va hayot oqshomining tongidir. Bu biri tufayli ishrat gullari ochiladi; u biri sababli zavq va shodlik uylari yorishadi. Insonning go‘zalligi undan; bashar avlodining qudrati undan. Asabu tomirlarga quvvat ham; qo‘l-oyoq va a‘zoyi badanga salomatlik ham undan. Ko‘ngilga ishq tug‘yonining tushishi ham, sho‘x go‘zallarga moyillikning paydo bo‘lishi ham undan. Yigitlarning o‘z husnijamoliga mag‘rurligi, o‘sha navqironlik tufayli, qarilarning esa ko‘z yosh to‘kib, yolvoruvchan bo‘lib qolishi undan mahrum bo‘lgani tufayli. Ko‘z uyi mash‘ali undan ravshan; yuz bog‘i anjumani undan gulshan. Go‘zallar husni istig‘nosiga sabab ham u; oshiq-larga ishq balosining jabru jafosi boisi ham u. Zo‘ravonlar boshida mamlakatlarni bosib olish ishtiyoqi ham undan, kuchsizlarning diyorini tark etib, g‘ariblik ixtiyor etishi ham undan...

\* \* \*

Turg‘un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Biri qimirlamay turgani uchun kishilar oyog‘i ostida poyandoz bo‘ladi; ikkinchisi esa, harakatda bo‘lgani tufayli, yuksaklarning yuksagi bo‘ladi.

Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj-mashaqqatga sababdir. Safar — erituvchi va kuydiruvchi qo‘radir. U erish-

kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gildan tozalovchidir.

Safar — ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar — xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, gʻaroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi.

Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram boʻlmoq ham safardan; fayzli, ulugʻ zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yoʻlovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va koʻngliga har tomonga borish zavqini soluvchi ham safar. Musofirni turli joy va manzillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kezish yoʻliga soluvchi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan koʻngilni ogohlantiruvchi ham u.

Safar vodiysida musofirning oyogʻiga koʻp dardu balo tikanlari sanchiladi, lekin, har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yoʻl mashaqqati zarbidan kishining aʼzoyi badani qaqshaydi; vujud yoʻlovchilar oyogʻi bilan top-taladi va har aʼzosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo, koʻnglining vayronligi tuzaladi va ruhi koʻzgusi ravshan tortib, jilo topadi.

Har oʻlkaning goʻzalligi, har manzilning osoyishtaligini safarda yuruvchilardan soʻra va musofirlardan eshit. Safar qilmagan orom olish


farogʻatini qaydan bilsin? Musofirlik azobini chekmagan vatandagi hayotning qadrini qanday anglasin? Oqmaydigan dengiz suvini ichsa boʻladimi? Oqar daryoning zilol suvlaridan ichishni tark etsa boʻladimi?

Odam uchun doim harakatda boʻlish — hayotlikdan asardir; jonsiz mavjudotlar — tiriklik nishonasidan bexabardir.

\* \* \*

Umrni gʻanimat bil; sogʻliq va omonlikka shukr qil. Boylik orttirish yoʻlini axtarma; kamsuqumlik bilan iftixor qil. Eʼtiqodingni hammaga aytib yurma; pulingni sovurma.

Befoyda gapni koʻp aytma, foydali gapni eshitishdan hech qaytma. Oz gapirgan — oz yanglishadi; oz yegan — oz kasallanadi. Ochlik negizida hikmat bor; toʻqlik tagida gʻaflat bor. Qorin toʻygʻazish hirsini koʻngildan yoʻq qil; oʻzing och qolsang ham — bir ochni toʻq qil. Oʻzingni yasantirishni xayolingdan chiqar; goʻzal libos kiyishni istasang, bir yalangʻochning egnini butla. Libos har qancha zebodir, kiyganingdan kiydirganing yaxshidir.



## LUQMONI HAKIMNING NASIHATLARI

1. Kimga pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil.
2. So'zni o'z qadringga loyiq gapir.
3. Odamlarning qadrini bil.
4. Hammaning haq-huquqini angla.
5. Siringni maxfiy tut.
6. Do'stni qiyin kunda sina.
7. Do'stni foyda va ziyonda imtihon qil.
8. Notavon va nodon odamdan qoch.
9. Dono va ziyrak do'stni tanla.
10. Yaxshi ishga astoydil kirish.
11. Sofdil va dono kishilar bilan maslahat qil.
12. So'zni isboti bilan gapir.
13. Yoshlikni g'animat bil.
14. Yoshlikda ikki dunyo ishlarini qilib qol.
15. Yoru do'stlaringni aziz tut.
16. Do'st-dushmaningga yuzingni ochiq tut.
17. Ota-ona g'animat.

---

*Luqmoni Hakim* — Sharq xalqlari orasida tengi yo'q hakim va donolik timsoli hisoblangan afsonaviy shaxs.

18. Ustozni otangdek ulug' ko'r.
19. Xarjni kiringa qarab qil.
20. Hamma ishda o'rtacha yo'l tut.
21. Olijanoblikni o'zingga shior qil.
22. Mehmonga xizmatni qoidadagidek bajar.
23. Birovning uyiga kirganda ko'z va tilingga ehtiyot bo'l.
24. Libosingni va badaningni toza tut.
25. Jamoat bilan hamdard bo'l.
26. Farzandingga ilmu adab o'rgat.
27. Iloji bo'lsa, farzandga chavandozlik va merganlikni o'rgat.
28. Etik va kavush kiyishni o'ng oyoqdan boshla, yechishni esa chap oyoqdan.
29. Birov bilan ish qilsang, o'sha odamga loyiq ish qil.
30. Kam yeyish va oz gapirishni odat qil.
31. O'zingga yoqmagan narsani o'zgaga ravo ko'rma.
32. Ishni avval o'ylab, chorayu tadbir bilan qil.
33. O'qimay ustozlik qilma.
34. Odamlarning yaxshiligiga tama qilma.
35. Pastkashdan vafo kutma.
36. Barcha ishda andishali bo'l.
37. Qilinmagan ishni bajarilgan hisoblama.
38. Bugungi yumushni ertaga qoldirma.
39. O'zingdan kattaga hazil qilma.
40. O'zingdan kattaga so'zni cho'zma.
41. Hojatmand kishilarni noumid qaytarma.
42. O'tgan janjalni eslama.

43. Odamlarning yaxshiligini o'z yaxshiliging bilan aralashtirma.
44. Boyliging miqdorini do'stu dushmanga bildirma.
45. Qarindoshni qarindoshdan ayirma.
46. Yaxshi odamni g'iybat bilan yod qilma.
47. Faqat o'zingni o'ylama.
48. Ko'pchilik turgan bo'lsa, sen ham ularga ergash.
49. Odamlarning oldida tish kavlama.
50. Og'zing va burning suvini baland ovoz bilan tashlama.
51. Esnasang, qo'lingni og'zingga qo'y.
52. Odamlarga qarab kerishma.
53. Jiddiy so'zni hazilga aralashtirib gapirma.
54. Birovni birovning oldida xijolat qilma.
55. Qoshu ko'zing bilan imlab chaqimchilik qilma.
56. Aytgan so'zingni yana qaytarma.
57. Birovni bema'ni kuldirishdan tiyil.
58. O'zingni va yaqinlaringni odamlar oldida maqtama.
59. O'zingni xotinlardek yasatma.
60. Bolalaring nima desa, o'shani qilaverma.
61. Tilni saqla.
62. Gapirayotganingda qo'lingni silkitma.
63. Hamma odamni hurmatlashni unutma.
64. Ig'vogar odam bilan suhbatdosh bo'lma.
65. Iloji boricha birov bilan urishma va xusumat qilma.
66. Birovning kuch-qudratini sinovchi bo'lma.



67. Ulug'lar sinovini yaxshilik bilan yodla va gumon qiluvchi bo'lma.

68. O'z noningni o'zgalari dasturxonida yema.

69. Ishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yma.

70. Mol-dunyo topaman, deb o'zingni qiynoq ostiga tashlama.

71. G'azabing kelganda so'zni tanlab gapir.

72. Quyosh chiqquncha uxlama.

73. Odamlar oldida yolg'iz yema.

74. Kattalardan oldinda yurma.

75. Yoshi ulug'lar so'zlayotganida ularning gapiga qo'shilma.

76. Boshingni osiltirib o'tirma.

77. Ko'chada o'ngi chapga alanglayverma, balki to'g'riga boqib, yerga qarab yur.

78. Mehmon huzurida birovga g'azabingni sochma.

79. Mehmonga ish buyurma.

80. Devona va mast bilan so'zlashma.

81. Mahalla boshida bekorchi va beboshlar bilan o'tirma.

82. Foyda-yu ziyonga o'zingni urib, obro'yingni to'kma.

83. Manman va takabbur bo'lma.

84. Odamlarning senga xusumat qilishidan qoch.

85. Jang va fitnadan qochuvchi bo'l.

86. O'zingni o'ta xor qilmaslikka intil.

87. Xoksor va kamtarin bo'l.



**FAXRIDDIN ALI SAFIY  
HANGOMALARI**

Bir ko'zi og'rib azob chekib yurgan Sahhib Rumiyl ismli xushfe'l kishi mo'tabar bir zotning qoshiga kelibdi. U kishining oldida bir talay xurmo bor ekan. Hech narsadan parhez qilmaydigan Sahhib ularni yeya boshlabdi. Shunda mo'tabar zot:

— Ey Sahhib, ko'zing og'rib turibdi. Parhez qilsang bo'lardi, — debdi.

— Hazratim, tashvishlanmang, sog' ko'zim bilan ko'rib yeyapman, — deb javob beribdi Sahhib.

\* \* \*

Umrida shaharni ko'rmagan bir arab Bag'dodga kelibdi. Bag'dod xalifasi bir kuni u bilan bir tovoqdan taom yeb o'tirgan ekan, banogoh mehmonning oldidagi bitta qilga ko'zi tushib qolibdi.

— Ey arab, ana shu qilni olib tashlagin, — debdi u.

---

*Faxriddin Ali Safiy* — XI asrda yashab ijod etgan fors-tojik adabiyoti namoyandasi.

Arab qo‘lidagi luqmani dasturxonga qo‘yib, qo‘lini artibdi.

— Taomdan olmaysanmi? — so‘rabdi xalifa.

— Yo‘q, — debdi arab, — mehmonning luqmasiga qaraganda qilni ham ko‘radigan kishining taomidan yeb bo‘ladimi!

\* \* \*

Bir badaviy arab safarda bor-yo‘g‘ini xarjlab tamom qilibdi. Hatto yegulik biror narsasi ham qolmabdi. Bir parcha nonga ko‘zi to‘rt bo‘lib ketayotganida, bir kishiga duch kelibdi. Yo‘lovchi to‘xtab undan so‘rabdi:

— Ey birodar, qaydin bo‘lursan.

— Sening qabilangdan, — debdi badaviy ozgina tamaddi umidida.

— Yaxshi, — debdi yo‘lovchi, — qani o‘tir-chi bo‘lmasa, birodar, bir hol-ahvol so‘rashib olaylik.

Yo‘lovchi o‘tirib, yelkasidan to‘rvasini olibdi. Uni yechib, ichidan non va go‘sh t olib yer ekan, so‘rabdi:

— Xo‘sh, bizning qabiladan bo‘lsang, mening manzilimdan o‘tdingmi?

— O‘tdim, — debdi badaviy tamshanib.

— Qalay, tinchlikmi? — so‘rabdi yo‘lovchi, bemalol kavshanar ekan.

— Ha, tinchlik, — debdi badaviy. — Hamma yoq to‘qchilik va ma‘murchilik. Menga o‘xshab ochidan tirishib yurgan kishi yo‘q.

— Meni Baqo degan itim bor edi, ko‘rdingmi?

— Koʻrdim, — debdi badaviy, — qoʻylaringni shunday qoʻriqlab yuribdiki, boʻrini bir yillik yoʻlga ham yaqin yoʻlatmaydi.

— Barakalla, oʻziyam juda ajoyib it-da. Xoʻsh, oʻgʻlim Xolid qalay?

— Xolidmi? Juda shoʻx bola boʻlibdi-da. Maktabxonada hech kimga kun bermaydi, mudarrisning boshiga chiqib oladi. Baland ovoz bilan Qurʻon tilovat qilganda odamning ogʻzi ochilib qoladi.

— Barakalla, ota oʻgʻil. Xoʻsh, onasini ham koʻrdingmi?

Xolidning onasi qalay?

— Onasimi? Shunday ochilibdiki, husnu jamolda va qaddu kamolda unday xotinni ikki olamda ham topib boʻlmaydi.

— Oh, oh, oh, tilingga shakar. Shunaqa boʻlgan degin. Ha, barakalla. Xoʻsh mening obkash tuyamni ham koʻrdingmi?

— E, boʻlmasa-chi? Jonivor shunchalik semi-ribdiki, orqasidagi oʻrkachi ham koʻrinmay ketibdi. Koʻrgan kishi uni fil deydi, fil.

— Qasrimga ham koʻzing tushgandir, albatta.

— Bay, bay, bay. Ayvoni osmonni oʻpay deydi-ya. Qani endi, hozir ana shunday qasri azim boʻlsa-yu, oʻltirib toʻyguningcha ovqatlansag.

Ammo bu gaplarga yoʻlovchi parvo ham qilmabdi. U oʻzining xonumoni, qasru ayvonining omonligini bilib olguncha, ishtaha bilan nonu goʻshtni kavshab, toʻyib ham olibdi. Badaviyga hatto mulozimat uchun boʻlsin ol demabdi. Oʻzi

to'ygach, qolgan-qutganlarini yig'ib, to'rvasiga solibdi. Badaviy qarasa, unga qilgan yaxshilik va xushomadlaridan hech narsa unmaydi. Juda xafa bo'lib ketibdi. Yo'lovchi ketaman deb turganida bir it paydo bo'libdi. Yo'lovchi qo'lidagi suyaklarni unga tashlab, endi yo'lga tushmoqchi ham ekanki, badaviy chuqur xo'rsinib debdi:

— Qara, umr ekan-da. Sening Baqo otlik iting tirik bo'lganda, bu suyaklar unga nasib qilgan bo'larmidi.

Yo'lovchi dong qotib qolibdi.

— Baqo o'ldimi?

— Aytmasdan ilojim qancha, — debdi uning ta'zirini berishga qasd qilgan badaviy, — ko'z oldimda o'lsa-ya.

— Nahot? Nima sababdan o'ldi?

— Ochko'zlikdan, — debdi badaviy, — hammasini bir o'zi yemasdan boshqa itlarga bersa ham bo'lardi-ku, yo'q, hammasini yeyman deb o'yladi shekilli-da.

— Nimani axir? — betoqat bo'lib so'rabdi yo'lovchi.

— Tuyaning go'shtini-da. Obkash tuyaning go'shtini. O'ziyam rosa semirgan ekan jonivor.

— Yo parvardigor, nahotki obkash tuyam ham o'lgan bo'lsa?

— Ha, bo'lmasa sening kuchugingni deb, biror kishi tuya so'yarmidi?

— Ochiqroq gapirsang-chi, tuyani qanday jin uribdi?

— Hech qanday, — debdi badaviy yuziga qayg'uli tus berib, — rahmatlik Xolidning onasi ta'ziyasi kuni so'yildi.

— Xolidning onasi ham o'ldimi?

— Bo'lmasa-chi, shunday musibat tushganda har qanday ona ham o'lishi turgan gap.

— Nega o'ladi endi?

— Iye! Esing bormi o'zi! Ajali yetgandan keyin o'ladi-da. Menimcha uning miyasi lat yegan bo'lsa kerak.

— Miyasi? Nega miyasi lat yeydi. Qanday o'ldi, axir?

— Qandayligini bilmayman-ku, harholda boshini Xolidning qabriga uraverib lat yetkazgan bo'lsa kerak.

— Vo ajab, Xolid ham o'ldimi?

— Nachora, bandalik ekan, xafa bo'lma, — debdi unga tasalli bergan bo'lib badaviy, — qasring ayvoni yiqilib, devorning ostida qolib ketmaganida hozir ajoyib yigitcha bo'lib qolar edi.

Yo'lovchining toqati toq bo'libdi. Bu mudhish xabarlarini eshitib boshiga mushtlab, yuzini yulibdi. Yerdagi xaltasiga ham qaramay dod vo vaylo, vo musibato deb fig'on chekib, uyiga tomon ravona bo'libdi. Badaviy esa xotirjam yerdan xaltani olib, bir chekkaga chiqib og'zini ochibdi-da, ishtaha bilan non va go'shtni tushira boshlabdi.

\* \* \*

Bir kuni ikki kishi qozi Shurayhning oldiga janjallashib kelib, biri ikkinchisidan katta mol

da'vo qilibdi. Unisi esa, men bu kishini umrimda ko'rmaganman, qanday qilib qarzdor bo'lishim mumkin, deb, tonib turib olibdi. Qozi da'vo-gardan so'rabdi:

— O'sha molni qayerda bergan eding?

— Falon sahroda, bir daraxtning ostida.

— O'sha daraxtni topa olasanmi?

— Bo'lmasa-chi, — debdi da'vogar, — cho'l-ning o'rtasida bitta-yu bitta daraxt.

— Xo'p, — debdi qozi, — borib o'sha daraxt bargidan olib kel. Chunki barglar gapning rostini aytadi.

Da'vogar barg olib kelgani ketibdi. Sherigi esa qozining yonida qolibdi. Qozi boshqa kishilarning arzini eshitishga kirishibdi va unga e'tibor ham bermabdi. Ancha vaqt o'tgandan keyin, gap orasida qozi unga luqma tashlab qo'yibdi:

— O'sha daraxtga yetib bordimikin?

— Hali yetmagan bo'lsa kerak, — debdi noxos-dan haligi kishi, —u yer ancha uzoq.

Qozi debdi:

— Borakallo. Endi iqror bo'la qolgin. Chunki sen avval hamma narsadan tonding. Endi ma'lum bo'ldiki, sen u daraxtni bilar ekansan.

U kishi xijolatda qolibdi. Qozi tadbir bilan uning ko'nglini yumshatib olgan qarziga iqror qilibdi. Shu asnoda da'vogar ham daraxt barglarini olib kelibdi.

— Barglar guvohlikni berib bo'ldi, — debdi qozi da'vogarga, — mana, olgan narsasini qaytib beradi.

Haligi kishi da'vogarni o'z uyiga olib boribdi, izzat-ikrom ko'rsatib, molini topshiribdi.

\* \* \*

Luqmoni Hakimni bir kishi sotib olib dargohida xizmat qildirar va undagi ilmi hikmatni gohigohida sinab ko'rarkan. Bir kuni imtihon tarzida buyuribdi:

— Ayo, Luqmon. Menga bir qo'yni so'yib, eng yaxshi a'zosini olib kelgin.

— Bosh ustiga, — debdi Luqmon va qo'yni so'yib tili bilan yuragini xojasiga keltirib beribdi.

Ancha muddat o'tgandan keyin, xoja uni yana chaqirib, debdi:

— Ayo, Luqmon. Bir qo'yni so'ygin-da, menga uning eng yomon a'zosini olib kelgin.

Luqmon qo'yni so'yib, yana tili bilan yuragini ko'tarib kelibdi. Xoja debdi:

— Bu nechuk asrorki, qo'yning eng yaxshi a'zosini so'rasam ham, eng yomonini so'rasam ham til va yurakni ko'tarib kelding?

Luqmon debdi:

— Ayo Xoja, agar pok bo'lsa, hech narsa til va yurakdan yaxshi emas. Agar nopok bo'lsa, hech narsa ulardan yomonroq ham emas.

\* \* \*

Bir hakimdan qaysi taom eng xushbo'y va lazzatli, deb so'rab qolibdilar.

— Qorin och paytida yeyilgan taom, — debdi hakim.



\* \* \*

Bir hakim ajoyib bir bazmda o'tirgan ekan, badovoz xonanda o'rtaq chiqib ashula boshlabdi.

Shunda hakim:

— Qadimgi hakimlarning kitoblarida boyo'g'lining ovozi kishining o'limidan darak beradi, deyilgan. Agar shu gap rost bo'lsa, bu mutribning ovozi boyo'g'lining o'limidan ham darak bo'la oladi, — debdi.

\* \* \*

Bir hakim sira may ichmas ekan. Bir kuni yoru do'stlari undan:

— Ayo donishmand, nechun may ichmay-san, — deb so'rabdilar.

Hakim debdi:

— Men aqlimni ichadigan narsani sira ham ichmayman.

\* \* \*

Bir kishi tabibning qoshiga kelib arz qilibdi:

— Qorin og'rig'i kasaliga giriftor bo'libman, bir ilojini qiling.

— Bugun nima yegan eding? — so'rabdi tabib.

— Ertalab tuzlangan mol go'shti yegan edim. Ustidan besh-oltita tuxum va bir oz sariyog' yedim. So'ng mevalarga ko'zim tushib, bir talay anor bilan olmurut yegandim.

— Yaxshi, — debdi tabib, — bu dardning bit-tayu-bitta davosi bor. Agar bu kecha o'lsang

o'lding, agar o'lmasang, ertaga shahar minorasiga chiqib o'zingni tashla. Ana shundagina sen qorin og'rig'i dardidan, qorin og'rig'i dardi esa sendan qutuladi.

\* \* \*

Bir kishi tabibning huzuriga kelib shunday debdi:

— Ayo tabib, uch kundanda beri bemorman, sira ishtaham yo'q, bir ilojini qilmasang bo'lmaydi.

Tabib uning tomirini ushlab ko'rib:

— Bugun qanday taom yeding? — deb so'rabdi.

— Uch kecha-kunduzdan beri hech narsa yemayman hisob, — debdi bemor.

— Harholda, ozmi-ko'pmi nimaiki yegan bo'lsang hammasini ayt.

— Yegan narsam og'izga olishga ham arzi-maydi, — debdi u.

— Mayli, arzisa-arzimasa, nimaiki ittifoqo og'zingga tushgan bo'lsa ham aytgin.

— Obbo, qo'ymading-da, — debdi bemor va yegan ovqatini sanay boshlabdi. — Yoningga kelayotgan edim, yo'lda kallapaz do'koni yonidan o'tayotib, pishirilayotgan hidi dimog'imga xush yoqdi. Kirib oltita kalla olib yedim, sen uchta deb hisoblayvergin. Keyin to'rt botmon non yedim, sen ikki botmon faraz qil. Undan keyin ko'nglim shirinlikni tusab qoldi, borib sakkiz botmon bodom holvasidan olib yedim. Sen to'rt botmon hisoblagin. Muzdakkina narsaga ko'nglim sust ketgan edi, borib yigirma botmon amiriy uzum olib

yedim, sen o'n botmon hisoblagin. Qarasam qovunfurush do'koni oldidan chiqib qolibman. Xisraviy degan qovundan qirqtasini olib yedim, sen yigirmata deb bilgin.

Bu so'zlarni eshitib hangu mang bo'lib qolgan tabib shunday debdi:

— Ana endi sen hisoblagin, men aytib beray: sen olti yil sarsom (miya yallig'lanishi) kasaliga giriftor bo'lasan, uch yil faraz qilgin. Undan keyin to'rt yil diq (siqilish, ozish) kasaliga muftalo bo'lasan, sen ikki yil hisoblayvergin. So'ng ikki ko'zing ko'r bo'ladi, sen bir ko'zim deb o'ylagin, ikki oyog'ing shol bo'ladi, sen biri deb hisobla. Undan keyin ich og'rig'i kasaliga chalinib, shu kasaldan o'lasan, qabrga qo'yib, ustingga yuz eshakka yuk bo'ladigan tuproq bostiradilar, sen ellik eshak deb faraz qilgin. Bor, senga javob.

\* \* \*

Bir shoir tabibning qoshiga kelib arz qilibdi:

— Ayo tabibi hoziq, bir narsa yuragimda tugun bo'lib turibdi. Shuning zarbidan butun vujudim qaqshab og'riyotganga o'xshaydi. Biror iloji bormikan.

Tabib ham odamlarni yaxshi tushunadigan bir kishi ekan:

— Bo'lmasam-chi, — debdi u, — olamda dard yo'qki, uning davosi bo'lmasa. Xo'sh, hali hech kimga o'qib bermagan she'ring bormi?

— Bor, — debdi shoir.

— O‘shani o‘qi.

Shoir she‘rini o‘qiy boshlabdi. Tabib uni maqtab, tahsinlar aytibdi. Keyin o‘sha she‘rni yana bir marta va yana bir marta o‘qishni iltimos qilibdi. Shoir she‘rini uch karra o‘qib bergach, tabib:

— Endi bor. Senga shifo shu. Yuragingda tugun bo‘lib turgan narsa shu she‘ring edi. Ana endi yozildi, — debdi.

\* \* \*

Bir kishi tabibga mazasi qochayotganini aytibdi. Tabib debdi:

— Bugun nima yeganding?

— Uch botmon yarmi kuyuk go‘ja ichdim, — debdi bemor.

Tabib unga:

— Sen yanglishibsan, mol tabibining qoshiga borgin, men odamlarning tabibiman, — debdi.

\* \* \*

Bir donishmand tabibdan so‘rashibdi:

— Ayo tabibi hoziq, aytgin-chi, bo‘saning mijozi issiqmi, sovuqmi?

Tabib debdi:

— Unisini aniq bilmaymanu, lekin ko‘pi ko‘ngilni aynitadigan bo‘ladi.

\* \* \*

Bir munajjimni dorga osadigan bo‘lishibdi. Bo‘yniga arqon solishgan paytda undan so‘rabdilar:

— Sen munajjim odamsan. O‘z tole‘ingdagi ana shu mavridni bilarmiding?

— Ha, — debdi munajjim, — ammo mening bilishimcha, o‘limimning mavridi boshqa edi, dor ham pastroq edi.

\* \* \*

Bir kishi tabibning oldiga kelib:

— Bir ilojini qiling, taqsir. Ertalabdan beri tinmay qornim og‘riyapti, — debdi.

— Ertalab qanday taom yegan eding, — so‘rabdi tabib.

— Bir talay kuyuk non.

Tabib xizmatkorini chaqirib, ko‘z og‘rig‘i dorisidan olib kelishni buyuribdi:

— Ayo taqsir, mening qornim og‘riyapti-ku, ko‘z dorisini nima qilaman?

— Tashvishlanma, — debdi tabib, — ko‘zing sog‘ bo‘lsa, kuyuk nonni yemagan bo‘larding.

\* \* \*

Sharqning mashhur mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniy Sulton Mahmud G‘aznaviyning qoshida mulozim edi.

Bir kuni safarda Sulton Mahmud to‘rt tomonida eshigi bor uyda o‘tirar ekan. U hakimni chaqirib shunday debdi:

— Qani, hukm qil, bu eshiklarning qaysi biridan chiqib ketaman. Ogohlantirib qo‘yay, agar hukming noto‘g‘ri bo‘lsa, boshing ketadi.

G'aznaviyning bu qadar qahru g'azabidan Beruniyning vahm bosibdi. Chor-nochor usturlobini olib mulohaza qilibdi va bir narsalarni yozib, ehtiyotkorlik bilan G'aznaviyning yostig'i ostiga tiqib qo'yibdi.

Mahmud G'aznaviy unga e'tibor ham bermasdan, darhol bir munshiyini chaqirib, shimoliy-sharq tomondan teshik ochishni aytibdi. So'ngra o'sha yerdan tashqari chiqib, Beruniyning yostiq ostiga qo'ygan qog'ozini olib kelishni buyuribdi. Mulozimlar darhol olib kelibdilar. O'qisalar, hakim bunday deb yozibdi: «Sulton hech qaysi eshikdan chiqmaydilar. Devorni shimoliy-sharq tomonidan teshib chiqadilar».

Sulton hayron bo'lib qolibdi. Keyin olimning salohiyatiga tahsin aytib, shu yerning o'zidayoq yuz ming diram pul, ot va to'nlar berib, a'yonlari orasida izzatini bajo keltiribdi.

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| Yusuf Xos Hojib hikmatlaridan (nasriy bayoni) ..... | 3  |
| Abul Faroj hikoyatlaridan .....                     | 12 |
| Kalila va Dimnaning soʻzlari .....                  | 19 |
| Kaykovusning aytganlari .....                       | 29 |
| Hazrat Navoiy oʻgʻitlari (nasriy bayoni) .....      | 36 |
| Luqmoni Hakimning nasihatlari .....                 | 46 |
| Faxriddin Ali Safiy hangomalari .....               | 50 |

## **IBRATLI HIKMATLAR**

Rassom *H. Qutluqov*  
Badiiy muharrir *H. Mehmonov*  
Texnik muharrir *U. Kim*  
Musahhihlar *Sh. Oripova, M. Rahimbekova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *N. Begmatova*

Bosishga ruxsat etildi 5.06.06. Bichimi 70×90<sup>1/32</sup>.  
«Tayms» harfida ofset usulida chop etildi. Shartli bosma  
tabog'i 2,34. Nashr tabog'i 2,50. Nusxasi 3000.  
Buyurtma № K—135. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi.  
700129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.